



Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan

Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 11-fevral, seshanba,

17 (24.043)-son

O'zbek xalq
maqoliYotgan
yotag'on
bo'lar, sovuqqa
qotog'on bo'larwww.zarnews.uz [@zarnews_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

"O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASINI "ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL IQTISODIYOT" YILIDA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI TO'G'RISIDA

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida va **Oliy Majlis palatalarining majlislarida belgilangan vazifalarining ijrosini** og'ishmay tashkil etish, **Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi to'g'risida hadli konvensiyasining Kioto protokoli va Parij bitimi** doirasida mamlakatning global hamjamiyati oldida oлган majburiyatlarini bajarishda tarmoq va sohalarning uyg'un "yashil transformatsiya"sinи amalga oshirish, ularning raqobatbardoshligi va resurs tejamkorligini ta'minlash, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish vaunga moslashish hamda aholining yashash sifatini yaxshilash va iqtisodiy o'shining yangi "yashil rivojlanish" modeliga o'tish maqsadida:

1. "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida mamlakat rivojlanishining ustuvor yondashuvlari etib quydigalar belgilansin:

mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko'chalarida yashililik darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakkantirish;

aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakkantirish va inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish;

tabiy resurslarni tejash va **ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash;**

o'simlik va hayvonot dunyosini asrash, ko'paytirish va keyingi avlodga yetkazish hamda biologik xilma-xillikni saqlash;

"yashil iqtisodiyot" tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o'zgarishiga moslashirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish;

respublika energobalansida qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, shu jumladan, **davlat-xususiy sherlikli asosida yirik "yashil energiya"** stansiylarini barpo etish, hududlarda **kichik va mikro gidroelektr stansiylari** tarmog'i kengaytirish, aholi xonardonlarida quyoshi panelellarini o'rnatishni rag'battantirish;

iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada zamonaviy energotejamkor texnologiyalarni keng qo'llash orqali iqtisodiyotda "**uglerod izi**"ni kamaytirish; **ekologik barqarorlikka yo'naltirilgan hududlar va tarmoqlararo mufoqlashtiruvni** ta'minlash.

Belgilansinki, ustuvor yondashuvlar **resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishni ko'zda tutuvchi iqtisodiy rivojlanish modeliga** o'tish orqali **2030-yilgacha** yalpi ichki mahsulotning yillik o'shini kamida **6 foiz** va uning hajmini **200 milliard AQSH dollariga** yetkazish, inflyatsiyani **5 foiz**, budget taqchiligini yalpi ichki mahsulotga nisbatan **3 foiz** daramasida saqlash, **kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish** maqsadlariga erishishga asos bo'ladi.

2. **2025-yilda "yashil iqtisodiyot"** tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilish, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish vaunga moslashishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish borasida:

Parij bitimining talabalaridan kelib chiqib, **O'zbekistonning uglerod neytralligiga erishishining uzoq muddati strategiyasi** ishlab chiqilishi;

iqlim o'zgarishiga moslashish, "yashil texnologiya"lar transferini inobatga oлgan holda global miqyosda mamlakatimizning kelgusi **5 yilda is-siqxona** gazlarini qisqartirish bo'yicha Milliy miqyosda belgilangan hissasi (**NDC**) e'lon qilinishi;

metan emissiyasini qisqartirish majburiyati doirasida tabiy gaz, chiqindilar va chovchachilik sohalarida **metan emissiyasining bazaviy holati aniqlanishi;**

umumiy quvvati **4,5 GVt** bo'lgan yirik **quyosh va shamol** elektr stansiyasini ishga tushirish, quvvati **785 megavatt** bo'lgan quyosh panellarini o'rnatish, quvvati **225 megavatt** bo'lgan **gidroelektr stansiylarini** barpo etish orqali jami qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi elektr energiyasi ishlab chiqarishda **26 foizga** va jami generatsiya quvvatlari tarkibidagi ulushi **40 foizga** yetkazilishi;

yangi quriladigan bino-inshootlar va uy-joylar energiya samaradorligidan kelib chiqib, "Yashil bino" sertifikasi joriy etilishi ta'minlansin.

Mazkur bandning so'zsiz, sifatlari va o'z vaqtida ijrosini ta'minlashga mas'ul etib tegishinchha Bosh vazir o'rnbosari – Iqtisodiyot va moliya vaziri **J.Qo'chqorov** hamda EkoLOGIYA, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri **A.Abduxakimov** belgilansin.

3. Energetika vazirligi (J.Mirzamaxmudov) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda bir oy muddatda:

2025-yilda **quyosh panelari** va geliokollektorlarni tuman va shaharlar kesimida o'rnatish dasturini;

2025-2026-yillarda respublika hududlarida **mikro gidroelektr stansiylarini qurish dasturini** Vazirlar Mahkamasiga kiritinsin.

4. "Tejamkorlik va barqarorlik" **tamoyili** asosida davlat istirokida yirik korxonalarini **transformatsiya qilish** va ishlab chiqarish xarajatlarini **15-20 foizgacha** qisqartirish maqsadida **2025-yil yakuniga qadar**:

yirik strategik korxonalar tomonidan ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillari asosida korporativ dasturlar ishlab chiqilib, kamida **5 ta** yirik sanoat korxonasi **ESG milliy hisoboti** yo'iga qo'yilishi va jamoatchilikka oshkor etish amaliyoti joriy etilishi;

"O'zbekneftgaz" AJ, "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ, "Olmalik kon-metallurgiya kombinati" AJ, "Uzbekistan Airports" AJ, "Uzbekistan Airways" AJ tomonidan **ESG reytingi olinishi**;

Samarqand va Farg'on'a viloyatlarda tajriba-sinov tariqasida **ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat zonalari** tashkil etilishi ta'minlansin.

Mazkur bandning so'zsiz, sifatlari va o'z vaqtida ijrosini ta'minlashga mas'ul etib tegishinchha Bosh vazir o'rnbosarlari **J.Qo'chqorov, J.Xodjayev** va EkoLOGIYA, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri **A.Abduxakimov** belgilansin.

(Davomi 2-sahifada) >>>



NAVOIY SIYMSIGA EHTIROM

Samarqand shahridagi markaziy istirohat bog'ida Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligi munosabati bilan ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Viloyat hokimi o'rinnbosari Rustam Qobilov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Farmon Toshev, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Xurshid Nurillayev va boshqalar Alisher Navoiy hayoti, boy ijodiy merosi va uning yoshlar tarbiyasidagi o'ni xususida so'z yuritdilar. Uning asarlarini dunyo xalqlarining bebablo ma'naviy merosiga aylangani qayd etildi.

- Navoiy asarlar - boy ma'naviy meros, bitmas-tuganmas xazina, - deydi filologiya fanlari doktori, professor Dilorom Salohiy. - Navoiyshunoslik fani oldida hali tadqiq etilishi lozim bo'lgan qator masalalar turibdi. Ulug' shoiring qo'lyozma va toshbosma asarlarini manbalari imkon darajasida to'la yig'ilmoq'li lozim. Shoiring masnaviyllari, soqynomalari kengroq tadqiq etilsa,

nur ustiga nur bo'ladi. Hazratning ijtimoiy faoliyati yangi nuqtai nazardan, zamondoshlari bilan munosabatlari, ijodiy maktabi, asarlarining tarjimalari o'rganilsa, navoiyshunoslik fani yana yangi mazmun-mohiyat kasb etishi mumkin.

Samargand davlat universiteti va O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabalarini shoir g'azzallari o'qidi.

Viloyat musiqali drama teatri aktyorlari tomonidan Navoiy siyomsiga ettirilgan sahna ko'rinishlari namoyish etildi.

Tadbir so'ngida davlat va jamoat tashkilotlari vakilari, yozuvchilar, shoirlar, professor-o'qituvchilar hamda talabalar tomonidan Alisher Navoiy haykali poyiga gulchambarlar qo'yildi.

To'Iqin SIDDIQOV.



Viloyat hokimi
vazifasini
bajaruvchi
A.Boboyev
viloyatda milliylikni
keng targ'ib
qilishga doir
qo'shimcha chora-
tadbirlar to'g'risida
qaror qabul qildi.

Juma "Milliy liboslar kuni" deb belgilandi

Qaror bilan haftaning juma kuni viloyatda "Milliy liboslar kuni" deb nomlandi hamda "Milliylik tuyg'usi Samarganda" loyihasi asosida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar bilan belgilandi.

Xalqimizning milliy madaniyatini asrab-avaylash va keng targ'ib etish, jamiyatda milliy an'ana va qadriyatlarini mustahkamlash va yoshlarga o'rgatish mazkur loyihaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

O'tgan hafta juma kuni davlat idoralari, ta'lim va tibbiyot muassasalarini xodimlari milliy liboslar kiyib, loyihada faol ishtiroy etdilar. Hokimlar va boshqa rahbarlar ijtimoiy tarmoqlar orqali aholiga murojaat qilib, milliy madaniyatimiz, boy an'ana va qadriyatlarimizni asrash hamda keng targ'ib etishga chorladilar.

Ta'limda hamon oxirgi o'rnlardamiz?

Vaziyat qachon o'nglanadi

Samarqand shahridagi Yoshlar markazida Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri Hilola Umarova, viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev viloyatdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumiy o'rta ta'lim maktablari mutasaddilari, murabbiylar hamda o'qituvchilar bilan uchrashuv o'tkazdi.

- Viloyatda o'ziga yarasha yutuqlarga erishilgan. Ammo Samarcandning salohiyati, imkoniyatlariga yarashmaydigan bir qator kamchiliklar borki, bular dan xulosa chiqarmasak bo'lmaydi, - dedi H.Umarova. - Viloyat maktabgacha ta'lim tashkilotlari qamrov ko'rsatkichlari bo'yicha respublikada 12-o'rinda ekanligining o'zi Samarcandda ta'limming birlamchi bo'g'ining e'tiborning sustligini ko'rsatadi. Qolaversa, umumiy o'rta ta'lim muassasalarini ko'rsatkichlari bo'yicha ham viloyat qurashchiga oixrig'i o'rinnlari band etib kelmoqda. O'rganishlar jarayonida aniqnashicha, o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiy fanlardan savodxonligini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi – PISAda Samarcandda 23 ta maktab ishtiroy etadi. Ushbu maktablarning 22 tasida zamonaviy kompyuterlarga ehtiyoj bor, internet tezligi ham past. Viloyatdagi 134 ta maktabning haligacha kadastru hujjalari mavjud emas. 136 ta maktabda kasb-hunar o'rgatish to'garaklar tashkii etilgan bo'lsa, ularning 9 tasida jihozlar yetishmaydi, 60 tasi xomashyo bilan ta'minlanmagan, atigi uchtagina to'garakka tashbirkorlar jalb etilgan, xolos. Maktablarda tashkii etilgan 90 ta inklyuziv sinflarning 47 tasida maxsus pedagoglar yetishmaydi. 61 ming 536 nafar pedagogning 43 foizi toifaga ega emas. O'tgan yil 3045 nafar o'qituvchining toifasi tushgan. Sakkiz turdag'i ta'lim ko'rsatkichlari bo'yicha viloyat respublikada 11-o'rinda.

- Viloyatda o'quv markazlarining soni 5 mingdan ortiq ekan, - dedi A.Boboyev. - Shu raqamning o'zi maktablardagi o'qitish sifatining pastligidan dalolat bermaydim? Ota-onalar farzandlari maktabdagisi bilim bilan olyi o'quv yurtlariga kirolmayotgani uchun pul to'lab, o'quv markazlariga topshirayti. Viloyatdagi 196 ta maktabgacha va maktab ta'limi muassasalarining birinchi darajali rahbarlik lavozimlari vakant. Besh mingdan ziyod chet tili fani o'qituvchilarining 2868 naafari sertifikatga ega emas. Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish bo'yicha viloyat respublikada 7-o'rinda. O'quvchi-qizlarning 120 naafari hali maktabni tugatmasdan turmushga berilgani na maktab direktorini, na o'qituvchini qiziqtirayti. 125 naifar maktab o'quvchisi jinoyat sodir etgan.

Viloyatdagi 196 ta maktabgacha va maktab ta'limi muassasalarining birinchi darajali rahbarlik lavozimlari vakant. Besh mingdan ziyod chet tili fani o'qituvchilarining 2868 naafari sertifikatga ega emas. Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish bo'yicha viloyat respublikada 7-o'rinda. O'quvchi-qizlarning 120 naafari hali maktabni tugatmasdan turmushga berilgani na maktab direktorini, na o'qituvchini qiziqtirayti. 125 naifar maktab o'quvchisi jinoyat sodir etgan.

Samarqand ta'lim tizimiga oid yuqoridagi kabi tanqidiy ma'lumotlarni, fikrlarni eshitib, o'yab

olasan kishi. Bundan o'n besh yil ilgari ham shu gaplar aytildi. Ayrim statistik raqamlar osghanini hisobga olmaganida, hech narsa o'zgarmagandek. Avval ham viloyat maktablari ta'lim ko'rsatkichlari bo'yicha mamlakatda 10 yoki 11-o'rindan tepega chiqmagani.

Bu nimadan dalolat deb o'ylaysiz? Agar hadeb tizimda rahbarlarni almashtirish bilan masala hal etilganda edi, Samargand ta'limiga mutasabbi bo'lganlar bugungide "yer chizib" o'tirmsadi. Vaholani, 2024-yilda 8 tumanda maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mudiri, boshqarmaning o'zida 20 nafor bo'lim boshqliqlari almashtirilgan.

Ajablanilishi, uchrashuv yakunida so'zga chiqqan MTT mudiralar, maktab direktorlaridan shuncha tanqidiy fikrlar bildirilishi qaramasdan, ta'lim sifatini yaxshilashga doir bironta taklif bildirilmadi yoki tashabbus ko'rsatilmadı.

Fikrimizcha, har bir tuman va shahar hokimliklari o'qituvchining maqomini, jamiyatdagi maveqeini hozirgidan bir necha karra oshirishga harakat qilmas ta'lim tizimi rivojlanmaydi.

O'qituvchi jamiyatdagi boshqa sohalar vakillari dan ko'ra ko'proq manfaat ko'rishi kerak! Shundagina ota-onasi o'qituvchini hurmat qiladi. Tabiiyki, ota-onasi, yaqinlarining pedagogiga e'tiboridan bola ham ustozini hurmat qilishni, ushbu kasbni ulug'lashni o'rganadi.

O'z navbatida, xalqning, hokimliklarning g'amxo'rligidan ruhlangan o'qituvchi o'z ustida ishlashga, ro'zg'ori but, ta'minot tugal bo'lganligi esa qiziqtiraydi. Pedagogik jamaoalarda raqobat shakllanadi. Jamiyatdagi eng obro'li soha bo'lgandan keyin,

"O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASINI "ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL IQTISODIYOT" YILIDA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI TO'G'RISIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

5. 2025-yilda mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko'chalarda yashillik darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish borasida:

aholi uchun barpo etilayotgan piyodalar va alohi-da velosiped yo'laklari bo'yida daraxtlar va o'simliklarni ekish orqali "Sovali sayr ko'chalari" tarmog'i yaratilishi, sohil va daryo bo'yalarida 80 ta infratuzilma obyekti va 110 kilometrdan ortiq sog'iomlashtirish yo'laklari qurilishi;

yomg'ir va oqova suvlardan samarali foydalanish, mahallalardagi daraxtlarni zamonaviy suv tejovchi texnologiyalar orqali sug'orish tizimini joriy etish natijasida yashillik darajasi oshirilishi;

"Yashil makon" umummilliy loyihasi va "Mening bog'im" loyihasi doirasida 200 million tup daraxt hamda butalar eklishi, "yashil bog'lar" va "yashil jamoat parklari" da qayosh panellari yordamida quvvatlanuvchi yoritkichlardan foydalanilishi;

Orol dengizi tubida 100 ming hektar "yashil maydon" barpo etilishi va Orolbo'y mintaqasidagi o'rmon-zorlar 2,1 million gektarga yetkazilishi;

o'rmon bilan qoplangan maydonlar 4,1 million gektarga yetkazilishi va muhofaza qilinadigan tabiy hududlar 14,5 foizgacha kengaytirilishi hamda ularning ekoturizm, ko'chatchilik va dorivorchilik yo'naliishlari-dagi foydalanimayotgan zaxiralari aniqlanib, ularning imkoniyatlardan to'liq foydalaniishi va aholining daromadlari oshirilishi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarining tanlangan hududlari-da sho'r va suvsizlikka chidamli o'simliklar (galofit) bog'lar tashkil etilishi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Surxon-daryo, Jizzax, Farg'on va Toshkent viloyatlarida davlat "in-vitro" laboratoriyalari tashkil etilishi, shuningdek, xususiy "in-vitro" laboratoriyalari barpo etishga tadbirkorlik subyektlariga kreditlarni ajratish uchun xalqaro moliya institutlaridan kamida 30 million AQSH dollari miqdorida mablag'lar jalb etilishi;

jamoatchilik, ekofaoller va biznes vakillarining ta-biatni muhofaza qilish bo'yicha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash akseleratsiya tizimi joriy etilishi ta'minlansin.

Mazkur bandning so'zsiz, sifati va o'z vaqtida ijrosini ta'minlashga mas'ullar etib tegishinchina Bosh vazir o'rnbosari J.Xodjayev, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri A.Abduxakimov, Qishloq xo'jaligi vaziri I.Abduraxmonov, Iqtisodiyot va moliya vazirining birinchi o'rnbosari I.Norqulov, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari belgilansin.

6. 2025-yilda aholining salomatligini yax-shilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va in-son salohiyatini ro'yogba chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish borasida:

a) aholining kundalik hayotiga ekologik tamoyil-larni singdirish orqali mamlakatimizda "Ekofaol fuqaro" hayot tarzini keng targ'ib qilishga qaratilgan "Bir million yashil oila" umummilliy harakati yo'iga qo'yilsin va aholi orasida targ'ib qilish ishlari tashkil etilsin. Bunda uning asosiy tamoyillari etib quydigilar belgilansin;

aholi orasida sog'iom turmush tarzi, xususani, tibby madaniyatini oshirish, sog'iom ovqatlanish, kunlik yurish va yugurishni targ'ib qilish;

"yashil transportda", shu jumladan, velosipedda harakatlanishni rag'battantirish;

plastik mahsulotlardan foydalanishni kamaytirish; oziq-ovqat isrofgarchiliginin oldini olish;

suv, gaz va elektr energiyasi resurslaridan oqilona foydalanish;

chiqindilarni turlariga qarab saralashni yo'iga qo'yish;

b) tibbiyotning birlamchi bo'g'inida quydigilar-ni nazarda tutuvchi transformatsiya bosqich-ma-bosqich amalga oshirilsin;

oilavli poliklinikalar, oilavli shifokorlik punktlari va mahalla tibbiyot punktlarida aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatishning samarali tizimini joriy etish;

ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalar faoliyatini markaziy shifoxonalarning maslahat diagnostika poliklinikasi sifatida yo'iga qo'yish;

markazlashgan laboratoriylar tashkil etish, shifokor qabuliga navbatni to'liq elektron shakliga o'tkazish, shuningdek, davlat tomonidan sanitariya-gigiyena normalariga riyoja etilishi ustidan nazorat kuchaytirilgan holda stomatologiya xizmatini autsorsing asosida xususiy sektoraga berish;

tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish, tibbiyot xodimlari mehnat samaradorligini baholash ko'rsat-kichlarini ishlab chiqib, samaradorlikka erishgan xodimlarning oylik maoshlariga qo'shimcha ustama-ni joriy etish;

viloyat darajasidagi ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatuvchi tibbiyot muassasalarini zarus o'rinn-joylarni (koyka) yaratgan holda boshqaruv, moliya va tashkiliy jihatdan zamonaviy ko'p tarmoqli klinikalar shaklida qayta tashkil etish;

v) inson salohiyatini yuksaltirish, ta'limga uchun qulay muhit yaratish ishlarni tashkil etish maqsadi-da 2025/2026-o'quv yilidani;

Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti **ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi** kabi ta'limga uchun qulay muhit yaratish ishlarni tashkil etib belgilansin;

Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universitetida "sirkulyar iqtisodiyot" ta'limga uchun qulay muhit yaratish ishlarni tashkil etib belgilansin;

Goraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universitetiga birkiriladigan "**yashil texnikumlar**" faoliyati yo'iga qo'yilsin;

tabiiy fanlar, muhandislik-teknika, iqtisodiyot va moliya yo'naliishlaridagi davlat olyi ta'limga tashkilotlarda

"**Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil rivojanish**" fani va o'quv dasturlari kiritilsin;

oliy ta'limga **grant o'rinnlarini** bosqichma-bosqich oshirish hisobiga aniq va tabiiy fanlar, muhandislik-teknika, xizmatlar, tibbiyot kabi sohalarda davlat buyurtmasi 25 mingtaga yetkazilsin;

"El-yurt umidi" jamg'armasini tomonidan ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi ta'limga dasturlari asosida ta'limga olyi shunstida stipendiya tanloviga 20 tagacha kvota ajratib borilsin;

respublikaning har bir tumanida (shahrida) bosqichma-bosqich **inklyuziv ta'limga talablariga javob beradi-gan** kamida **bittadan umumta'limga maktabi faoliyati** tashkil etilsin;

"Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida 3,5 ming kambag'al oilalar farzandlarini tayyorlab, olyi ta'limga tashkilotlara belgilangan tarbiда **grant asosida** qabul qilish ishlari tashkil etilsin;

g) **2025-yil 1-martga qadar** to'g'ri ovqatlanish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishning inson salomatligiga foydasini targ'ib qilishni kuchaytirish das-turi ishlab chiqilsin;

d) **2025-yil 1-avgustga qadar** oziq-ovqat xavfsizligi sohasida xavf-xatarlarni aniqlash, baholash, boshqarish va monitoring qilish maqsadida idoralararo yaxlit Milliy axborot platformasi ishlab chiqilsin.

Mazkur bandning so'zsiz, sifati va o'z vaqtida ijrosini ta'minlashga mas'ullar etib tegishinchina Sog'liqni saqlash vaziri A.Xudayarov, Sport vaziri A.Ikramov, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri B.Zaxidov, Oliy ta'limga, fan va innovatsiyalar vaziri K.Shari-pov, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri A.Abduxakimov, Qishloq xo'jaligi vaziri I.Abduraxmonov, Iqtisodiyot va moliya vazirining birinchi o'rnbosari I.Norqulov, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari belgilansin.

7. Quyidagilar:

Sog'liqni saqlash vazirligi (A.Xudayarov, E.Adilov) **2025-yil 1-iyulga qadar** tibbiyot va farmatsiyeka xodimlari faoliyatini bosqichma-bosqich **davlat ro'y-yatidani o'tkazish tizimini** aniq mexanizmlarni nazarda tutgan holda joriy etish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini kiritinsin;

Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh.Shermatov) Sog'liqni saqlash vazirligi (A.Xudayarov, E.Adilov) bilan birgalikda **2025-yil 1-noyabrga qadar** tibbiyot va foydalishning inson mexanizmlari joriy qilishning ishlab chiqilsin;

8. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi (A.Abduxakimov) va Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh.Shermatov) **2025-yil 1-iyunga qadar** "Bir million yashil oila" umummilliy harakati doirasida quydigilarini nazarda tutuvchi platformani ishga tushirsin;

ekologik tamoyillarni o'zining kundalik hayotiga joriy etishda yuqori ko'rsatkichlarga erishganlarga "**Eko-faol fuqaro**" maqomini berish hamda ular uchun davlat xizmatlaridan foydalishanishda **10 foiz** chegirma va davlat ulushi **50 foizdan yuqori** bo'lgan banklarda iste'mol kreditini olishda chegirma taqdim etish;

oilaning barcha voyaga yetgan a'zolari "**Eko-faol fuqaro**" maqomini olganda, ushbu oliga "**yashil oila**" maqomini berish hamda ularga har yili ochiq tanlov orqali **14 ta elektromobil** berish;

aholisining yarmi "**yashil oila**" maqomini olgan mahallalarda "**Eng toza mahalla**" va "**Eng yashil mahalla**" tanlovlarni o'tkazish va g'olib bo'lgan mahallalar jamg'armasiga mahalla aholisining takliflarini o'rgangan holda mahallanligi ichki infratuzilmasini yanada yaxshilash tadbirlarini molyalashirishga, xususani, yo'llarni ta'mir-lash, energotejamkor yoritish uskunalarini o'rnatishtirish, bolalar maydonchasi qurish, "**yashil bog'**" yaratish va o'rindiqlar o'rnatishtirish, chiqindi yig'ish maydonchalarini qurish, chiqindi qutilari va konteynerlarini o'rnatishtirish 500 million so'm ajratish.

Mazkur bandning so'zsiz, sifati va o'z vaqtida ijrosini ta'minlashga mas'ullar etib tegishinchina Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri A.Abduxakimov, Raqamli texnologiyalar vaziri Sh.Shermatov, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari belgilansin.

9. Aholi, ayniqsa, yosh avlod vakillari tomonidan sanitariya-gigiyena vositalaridan foydalishanish imkoniyatlarni yanada kengaytirish maqsadida **2025-yil 1-maydan boshlab** quydigilarini nazarda tutuvchi "**Toza qo'llar**" dasturi amalga oshirilsin va aholi orasida keng targ'ib qilishlari tashkil etilsin;

a) barcha sog'liqni saqlash va ta'limga muassasalarida: qo'l yuvish joylarini zarus sanitariya-gigiyena vosi-

talarini bilan ta'minlash;

sanitariya-gigiyena xonalarining **texnik holatini yaxshilash**, yangi qurilayotgan muassasalarida ularni **binoning ichki qismida** joylashtirish;

yl davomida **birinchi navbatda qo'l yuvish va antisептик vositalarni** xarid qilishni nazarda tutish;

b) barcha turdagi jamoat sanitariya-gigiyena xonalarini, umumiyoq qurilayotgan tashkilotlari **sanitariya-gigiyena vositalari bilan** ta'minlash majburiyatini kiritish.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I.Norqulov) birinchi darajali mablag' taqsimlovchilarning asoslangan hisob-kitoblariga ko'ra 2025-yil davomida budjet tashkilotlarda mazkur banddag'i tadbirlar uchun zarus bo'lgan holda **qo'shimcha mablag'lar** ajratsin.

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamaot salomatligi qo'mitasiga (B.Yusupaliyev) **bir yo'muddatda ushu** banda nazarda tutilgan muassasalarida sanitariya-gigiyena holatini saqlash uchun vositalar ajratish bo'yicha normativlarni qayta ko'rib chiqsin va ularning amalga bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilsin.

10. Sog'liqni saqlash vazirligi (A.Xudayarov), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (O.Fozilkarimov), Maktabgacha va mablag' ta'minlashga qo'mitasiga (X.Umarova) Qurilish va uyjoy kommunal xo'jaligi vazirligi (Sh.Xidoyatov) bilan birgalikda **2025-yil 1-avgustga qadar** Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro ekspertrilari jalb etgan holda respublikanining barcha ijtimoiy soha muassasalarida, shu jumladan, umumiyoq qurilayotgan nuqtalarini va viloyatlararo avtomobil yo'llari bo'yagi sanitariya-gigiyena nuqtalarida sanitariya-gigiyena tizimini yaxshilash bo'yicha dasturni Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin.

11. Oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligini nazorat qilish tizimini kuchaytirish va bu boroda **sanitariya qoidalari** ishlab chiqib, **me'yordar** yuqori standartlarga muvoqiflashtirish maqsadida:

2025-yil 1-iyulga qadar Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamaot salomatligi qo'mitasining **laboratoriyalarni** oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi **transyog'larni aniqlash uchun zarur jihozlar bilan ta'minlash** choralar ko'rilsin;

2025-yil 1-avgustga qadar oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda transyog'lardan foydalishning cheklangan miqdorlari belgilash bo'yicha sanitariya-qoidalari va me'yordar Jahon savdo tashkiloti talablariga muvoqiflashtirilishi ta'minlansin va ularga riyoja etilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilsin.

Mazkur bandning so'zsiz, sifati va o'z vaqtida ijrosini ta'minlashga mas'ul etib Sog'liqni saqlash vaziri A.Xudayarov belgilansin.

12. 2025-yilda **tabibiy resurslari** tejash va ulardan **oqilona** foydalishning, **ekologik barqarorlikni** ta'minlash borasida:

1 ming kilometr kanallarni beton qoplama o'tkazib, suv tejovchi texnologiyalar qamrovini **1,6 million gektarga** yetkazish hisobiga yiliga qo'shimcha **2,5 milliard metr kub** suvni tejashga erishilishi;

nasos stansiyalarida **eskirgan nasos va elektr dvigat**

"O'ZBEKİSTON – 2030" STRATEGİYASINI "ATROF-MUHİTNI ASRASH VA "YASHIL İQTİSODİYOT" YILIDA AMALGA OSHIRİSHGA OID DAVLAT DASTURI TO'G'RİSİDA

(Davomi. Boshlanishi 1-, 2-sahifalarda).

2027-yil 1-yanvardan boshlab yer resurslarini muhofaza qilish va tuproqning unumdon qatlami yo'qolib ketishining oldini olish maqsadida qishloq xo'jaligiga, tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreasiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar, tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar, o'mron va suv fondi yerlarida **tuproq karerleri faoliyati** taqiqlanadi;

ko'p qavatlari turar joylarni loyihalash, qurish va foydalanishga qabul qilishda **oqova, yomg'ir va texnik suvlardan** sug'orishda foydalanish tizimlarini tashkil etish majburiy etib belgilanadi.

16. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (L.Kudratov), Energetika vazirligi (J.Mirzamaxmudov), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I.Norqulov), Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi (Sh.Xidoyatov), O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (A.Jumanazarov), Savdo-sanoat palatasi (D.Vaxabov) **ikki oy muddatda energiya samarador materiallarni mamlikatimizda ishlab chiqarish hajmini oshirish va ulardan keng foydalanish bo'yicha dasturni** Vazirlar Mahkamasiga kiritis.

17. O'simlik va hayvonot dunyosini asrash, ko'paytish va ularni keyingi avlodga yetkazish borasida **2025-yil 1-sentabrdan boshlab** yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarni yig'ish va tayyorlash uchun tasdiqlangan kvotalar hamda o'simlik dunyosi obyektlaridan **maxsus foydalanish uchun ruxsatnomalarni elektron aukcion orqali berish** tartibi joriy etilsin. Bunda:

kvotalar Fanlar akademiyasi tomonidan **har yili aniqlanadigan o'simlik zaxirasi asosida** shakllantiriladi;

kvota va ruxsatnomalar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan **tasdiqlanib, auksionga** chiqariladi.

Mazkur bandning so'zsiz, sifatli va o'z vaqtida ijrosini ta'minlashga mas'ul etib Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri **A.Abduxakimov** belgilansin.

18. Atrof-muhitga ta'sir ko'rsatish bo'yicha **I va II** toifalarga mansub korxonalarining **ekologik ishlab chiqarishga o'tishdagi harakatlarini** rag'batlantirish maqsadida **2025-yil 1-avgustdan boshlab** quyidagi tartib joriy etilsin:

a) **birinchi bosqichda** – atmosfera havosi iflosnishi fon **monitoringi stansiylarini** o'rnatgan korxonalarga:

tabiatga zarar yetkazish bo'yicha **kompensatsiya to'lovlardan shakllangan qarzdorlikdan voz kechish;**

tabiatga zarar yetkazish bo'yicha respublika byudjetiga yo'naltiriladigan **kompensatsiya to'lovlarning 50 foizigacha bo'lgan qismini ikki yil davomida qaytarish;**

b) **ikkinchi bosqichda** – monitoring stansiylarini o'rnatgan korxona kelgusi bir yil davomida **chang-gaz va lokal suv tozalash uskunalarini o'rnatganda**, tabiatga zarar yetkazish bo'yicha respublika budjetiga yo'naltiriladigan **kompensatsiya to'lovlarning 70 foizigacha bo'lgan qismini ikki yil davomida qaytarish** belgilansin.

Bunda mazkur bandda nazarda tutilgan **imtiyozlar** davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalni orqali Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan beriladigan **xulosha asosida** taqdirm etiladi;

v) **2025-yil 1-noyabrga qadar** Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan xo'jalik faoliyatini yurituvchi korxona va tashkilotlar tomonidan yetkazilgan **ekologik zararlarni majbuliy sug'urtalash** tizimini bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha qonun loyihasi ishlab chiqilsin.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri **A.Aripov ikki oy muddatda** respublikada atmosfera havosi iflosnishing oldini olish, xususan, sanoat korxonalarini va issiqxonalarda **chang-gaz va lokal suv tozalash uskunalarini bosqichma-bosqich o'rnatish bo'yicha dasturni** tasdiqlasini va uning ijo etilishini qat'iy nazoratiga olsin.

19. **2025-yil 1-sentyabrdan boshlab** tadbirkorlik subyektlarini **"yashil tadbirkor"** sifatida e'tirof etish yuzasidan quyidagilarni nazarda tutuvchi platforma ishga tushirilsin:

a) **quyidagi** yo'nalihsarda belgilangan **ko'rsatichklarni** bajargan tadbirkorlik subyektlariga **"yashil tadbirkor"** maqomini berish:

ko'kalamzorlashtirish, jumladan, korxonani "yashil belbog" bilan o'rash, sug'orish tizimlarini o'rnatish, tomchilatish, yomg'irlatish va konteynerli (qopli) sug'orish tizimini joriy qilish;

energiya tejamkorligini ta'minlash, jumladan, enerji tejovchi uskunalar va texnologiyalarni joriy qilish;

korxonaning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish, jumladan, ekologik huquqburzalik sodir etmaslik, atmosferaga tashlamalarni onlayn monitoring qilish tizimini joriy etish;

ishlab chiqarishiga **sirkulyar iqtisodiyotni joriy qilish** ("7R") tamoyilini tatabiq etish;

b) "yashil tadbirkor" maqomini olgan tadbirkorlik subyektlariga quyidagi **qo'llab-quvvatlash choralarini** qo'llash:

"**Shaffof qurilish**" platformasida ustuvorlik berish; muayyan muddat davomida **ekologik tekshiruvlarida** ozod etish;

xalqaro bozorlarga chiqish uchun qo'llab-quvvatlash;

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi doirasida qo'shimcha ball berish.

20. Aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan qayta tiklanuvchi energiya manbalardan keng foydalanishni batlantirish maqsadida 2025-yil 1-apreldan boshlab chiqindilar utilizatsiyasi hisobiga hamda shamol va quyosh manbalardan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun "**yashil tarif**"lar joriy etilsin. Bunda:

tadbirkorlik subyektlari tomonidan chiqindi va biogaz utilizatsiyasi orqali ishlab chiqariladigan hamda tashkilotlarning o'z hududlarida o'rnatgan shamol va quyosh elektr qurilmalaridan ishlab chiqariladigan elektr energiyasi uchun; aholining quyoshdan olingan va foydalanishda o'z ehtiyojidan orttirib, davlatga sotadigan elektr energiyasi uchun imtiyozli tariflar belgilanadi.

21. Iqtisodiyotni dekarbonatsiya qilish va iqlim o'zgarishiga moslashishga qaratilgan loyihalarni **barqaror moliyalashtirish bo'yicha**:

a) **2025-yil 1-dekabrga qadar** O'zbekiston Respublikasida "**yashil moliyalashtirish**" tizimini shakllantirish bo'yicha **milliy dastur** ishlab chiqilsin;

b) 2025-yildan boshlab **quyidagi manbalar hisobidan yashil va kam ugleroldi rivojanish loyihalarni qo'llab-quvvatlashga imtiyozli kredit va grant mablag'larini jaib etish** choralar ko'rilsin:

Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan – bosqichma-bosqich **200 million yevrogacha**;

Jahon bankidan – energetik sektorida metan emisiyasini kamaytirish uchun **10 million AQSH dollar**;

Global yashil o'sish instituti orqali Koreya xalqaro hamkorlik agentligi texnik ko'magi doirasida – O'zbekiston – Koreya o'tasida "yashil hamkorlik"ni kuchaytirish uchun **6,5 million AQSH dollar**;

Jahon banking "ICRAFT" loyihasi doirasida – 500 ming tonna qisqartirilgan issiqxonalarini sotish hisobiga **7,5 million AQSH dollar**;

Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyatidan – sa-noatni yashillashtirish va azot kislotosi ishlab chiqaruvchi korxonalarining atmosferaga chiqarayotgan zararlar qazlarini qisqartirish uchun **20 million yevro**;

v) **2025-yil sentabrga qadar** "**yashil iqtisodiyot**" loyihalarni amalga oshirishda **shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan milliy "yashil iqtisodiyot" loyihalarni baholash** tartibi **tabbiq etilsin**;

g) **2025-yil noyabrga qadar** qiymati **10 million AQSH dollaridan** yuqori bo'lgan **davlat-xususiy sheriklik** asosida yangi loyihalarni "Source" xalqaro platformasiga kiritish orqali loyihalarning "**yashil komponentlari**" va **barqaror rivojanish maqsadlariga mosligini baholash** amaliyoti yo'iga qo'yilsin;

d) Yevropa Iftoqining **texnik ko'magida** Buxoro, Namangan, Nukus, Urganch shaharlarini va G'uzor tu-manida kam ugleroldi rivojanish bo'yicha harakatlar rejalarini ishlab chiqilishi hamda **10 ta ijtimoiy obyektingen energiya samaradorligi** oshirilishi ta'minlansin.

Mazkur bandning so'zsiz, sifatli va o'z vaqtida ijrosi ta'minlashga mas'ul etib Bosh vazir o'rinosi J.Qo'chqorov belgilansin.

22. Belgilansinki, 2025-yilda ekologik barqarorlikni ta'minlovchi hududlar va tarmoqlararo muvofiglashtirishni ta'minlash borasida:

2025-yildan boshlab shakllantiriladigan investitsiya dasturlari, tarmoq, sohalar va hududlarni rivojanlantirish bo'yicha yangi loyihalarning **15 foizida**, 2027-yildan boshlab – **30 foizida**, 2030-yilden boshlab – **55 foizida** "**yashil komponentlari**" bo'lishi lozim;

daylat organlari va tashkilotlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ishlab chiqiladigan uglerod neytralligiga erishish, iqlim o'zgarishiga moslashish, atrof-muhitni asrash, **yashillik darajasini oshirish** va "**yashil loyihalarni**" ni amalga oshirishga qaratilgan "**yashil dasturlari**" Ekonomiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlanadi;

har yili **davlat organlari va ijtimoiy obyektlarining** atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va "**yashil texnologiya**"larni joriy qilish bo'yicha **ekologik reytingi** yuritib boriladi.

23. Hududlarda atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi (A.Abduxakimov) **bir oy muddatda** davlat ekologiya nazorati va tekshiruvni amalga oshirish tartibini takomillashtirish, Davlat ekologik nazorat inspeksiysi faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, uning xodimlarini maxsus texnika va transport vositalari bilan ta'minlash bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarni ishlab chiqilishini tizimi monitoring qilib borsin;

24. Bosh vazir o'rinosi J.Qodjayev, Ekonomiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri A.Abduxakimov, Iqtisodiyot va moliya vazirining birinchi o'rinosi I.Norqulov turizm salohiyati yuqori bo'lgan tog'li hududlar, suv omborlari va suv havzalarini hamda daryo bo'yalarida "**apart-otel**", "**kapsula**" uylar va shu kabi **joylashtirish vositalaridan iborat turizm majmularini** tashkil etishga **500 million AQSH dollar** miqdorida investitsiyalarni jaib qilish choralarini ko'rsin.

25. Qishloq xo'jaligi yerlardan **samarali foydalish** va aholini **doimiy daromad manbalari** bilan ta'minlash maqsadida:

2025-yil 1-martga qadar tajriba-sinov tariqasida **tanlab olinagan yer uchastkalari** konturlar yaxlitligi va sug'orish tizimini buzmagan holda, **3 gektardan 50 gektargacha** bo'lgan o'chamlarda, ijara chilarning mustaqilligi va **yuqori qo'shilgan qiymatiga ega ekinlar yetishtirishga asoslangan yangi tizim bo'yicha** aksiyasi savdolari orqali ajratilsin;

26. Mazkur bandning ijosini ta'minlashga mas'ul etib Qishloq xo'jaligi vaziri I.Abduraxmonov belgilansin.

27. Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh.Shermatov) Adilya vazirligi (A.Tashkulov) bilan birgalikda **2025-yil 1-oktabrdan boshlab** davlat xizmatlari ko'rsatilishi qog'oz shaklidagi hujjatlar aylanmasining to'liq elektron shakliga o'tkazilishini ta'minlasin.

28. "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "**Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot"**" yilda amalga oshirishga oid davlat dasturi (keyingi o'rinalarda – Davlat dasturi) doirasida quyidagilarni 1-21-ilovalarga muvofiglashtirish;

29. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiriladigan yer maydonlari **10 ming gektarga** yetkazilsin.

Mazkur bandning ijosini ta'minlashga mas'ul etib Qishloq xo'jaligi vaziri I.Abduraxmonov belgilansin.

30. Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh.Shermatov)

chalarni ekish dasturlari Vazirlar Mahkamasiga kiritilishi;

2025-yil bahor-kuz mavsumlarida respublikadagi barcha mahallalarining ichki ko'chalari va aholi sonadonlarida 32 million **tup mevali** va **manzarali** daraxtlar, **buta** ko'chatlarini hamda **rayhon, gultoji, artirulg** va boshqa gullar, shuningdek, **qalamchalarini** ekish va parvarishlab borishni;

"**Obod xonodon**", "**Obod ko'cha**" va "**Obod mahalla**" mezonlarini joriy etish maqsadida 2025-yil 10 fevralga 10 martga qadar ham bir **xonodon**, **ko'cha** va **qabristonlarda obodonlashtirish** hamda **ko'kalamzorlashtirish** ishlarini uyushqoqlik bilan tashkil etishni;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda Navro'z bayramiga qadar mahallalar o'tasida "**Obod xonodon**", "**Obod ko'cha**" va "**Obod mahalla**" ko'rik-tanlovlari o'tkazilishini ta'minlasin.

Mazkur bandda nazarda tutilgan tadbirlar **Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg'armasi**, homiylik va xayriya mablag'larini hisobidan amalga oshirilishi belgilansin;

b) Bosh prokuratura (Sh.To'xtaboyev) O'zbekiston mahallalarini uyushmasi (Q.Kurbanbayev) bilan birgalikda joylarga chiqqan holda mazkur bandda nazarda tutilgan chora-tadbirlarning **o'z vaqtida va sifatli amalga oshirishli ustidan qat'iy nazoratni** o'rnatalishini ta'minlasin.

31. Belgilab qo'yilsinki: **Davlat dasturini so'zsiz, sifatli va to'liq amalga**

NAVOIY va GYOTE

IJODIDA ISHQ-MUHABBAT TALQINI

Qiyoslash natijasida yuzaga chiqadigan o'xshash va mushtarak jihatlar asosan ikki hodisa o'rtasida kechadigan jarayonlardan aniqlanadi. Bunda qiyoslanadigan hodisalar o'rtasida muayyan darajada moslik, ko'lam jihatdan tenglik bo'lgandagina muhim natjalarga erishish mumkin. Navoiy va Gyote dahosi esa ayni jihatdan bir-biriga munosib fenomenlardir.

Navoiy va Gyote hayoti, shoirlilik va davlat arbobi sifatida mushtarak jihatlari ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan o'rjanligan. Biz mavzuning ushbu jihatiga to'xtalmaymiz, balki ikki buyuk siymo ijodida ishq-muhabbat talqinlariga e'tibor qaratmoqchimiz.

Navoiy o'zining shoh asari bo'lmish "Xamsa"ning ilk dostonidagi to'qqizinchili maqolotni "Ishq o'ti ta'rifida" deb nomlaydi va unda ishqqa shunday ta'rif beradi:

Bo'lmasa ishq, ikki jahon bo'lmusun,

*Ikki jahon demaki, jon bo'lmusun,
Ishqiz u tanki, aning joni yo'q,
Husnun netsun kishikim, oni yo'q.*

Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari" asarida quydagi ta'rif keltirilgan:

"Bugun Lotta bilan ko'risholmadim: bir necha ezma kishilar yonida tutilib goldim. Endi nima qilish kerak? Hech bo'limsa, uning huzurida bo'igan odamni ko'rish maqsadida, u yoqqa xizmatkorimini yubordim. Men uni sabrsizlik bilan kutdim va shunchalalar quvonch bilan qarshi oldim-kil! Agar jur'at etganimda edi, uning boshini ko'ksimga bosib, o'pib olgan bo'lardim. Aytishlaricha, banon toshini (og'ir yaltiroq tosh bo'lib, 1602-yilda bolonelik etikdo'z Karsiorolus topgan va shu sababli banon yoki balone toshi deb yuritildi) oftobga qo'ysa, u quyoshi nurlarini o'ziga yutarmish, keyin ancha vaqtgacha qorong'ilknii yoritib turarmish. Mening xizmatkorim ham, nazarimda, shunday edi. Lottaning nazari uning yuz-ko'zlariga, livreyasining tugmalari, plashining yoqasiga tushgan, degan tuyg'u men uchun shunday muqaddas va qizmatli edik!" kabi fikrlari bevosita Navoiyning "Layli va Majnun" dostonidagi Majnun mahbubasi yashagan uy ostosasi yoki bosgan izarlini ko'zlariga to'yoq qilishi, uning qabiladoshlariiga va itiga ko'satqan mehr-muhabbatini eslatadi.

Bir paytlar ma'shuqasi hovlisini qo'riqlagan, ayni paytda tanasi yara bosgan it ham Majnun uchun naqqa qadrli ekanligi, ya'ni bir vaqtlar Layli

xonadonini makon tutgan, har kuni uning vaslini ko'rib, unga posbonlik qilgan it garchi o'zini talayotgan pashshalarni qo'rishga majoli yetmasda, oshiq qalbaligidi ishq yarasiga malham bo'lishi g'oyasi Gyotening yuqoridagi qarashlari bilan hamohangdir. Shuningdek, Qays ma'shuqasi qabilasidan bo'lgan Zayd va cho'ponni ko'rganda ham xuddi shunday izat-ikrom ko'satadi. Axir Laylining nazari yillab qo'yularini boqqan cho'pon yoki Zaydning yuz-ko'zlariga, qo'yulariga yoki ostosanini qo'riqlagan itiga tushgan. Majnun uchun ma'shuqasining nigohi tushgan har bir giyoh, har bir tog'u tosh, tuproq, hatto qum zarralarigacha muqaddas, qadrlisi sanaladi.

Bu o'rinda Majnunning yorga muhabbatni orqali insонning butun borliq va uning yaratuvchisiga bo'lgan mehr-muhabbati namoyon bo'ladi. Verter qalbidagi ishq tug'yoni har lahzada uni Yaratganning yaratiqlariga mehrini oshirsa, Qays yuragidagi ishq otashi boshqalar jirkadanigan maxluq (qo'ti)ni ham unga dunyodagi eng go'zal mavjudot qilib ko'satadi. Bunda ishqning iliohi tuyg'u ekanligi va Alloh yaratgan jamiki mavjudotga muhabbat unga bo'lgan ishqning zarrasi ekanligi, jordan kechmaguncha unga erishib bo'lmasligi g'oyalari ilgari surilgan.

Biroq Verter-Sharlotta o'rtasidagi muhabbat Navoiyning Layli va Majnuni o'rtasidagi ishqdan farqli jihatlar ko'p. "Layli-Majnun"da to'siqlarga qarshi oshq-ma'shuqa birday, borlig'i bilan kurashadi. Sharlotta esa Verterga Layli singari jonfidolik ko'sata olmaydi. U qalbidagi muhabbat har qancha kuchli bo'limasini, onasining vasiyati, ukalarining taqdiri uchun qurban

qiladi. Bu yerda eng katta ijtimoiy-maishiy to'siq sifatida - opalii va farzandlik burchi, qolaversa, Verter qalbidagi ruhiy yemirilishlar fojiali yakunga olib kealdi. E'tibor qiladigan bo'lsak, Layli va Majnun taqdiri ham fojiali.

Biroq Verter va Sharlotta o'rtasidagi ishq oshiq-ma'shuqani ham jismongan, ham ma'nani bir-biridan ayirgan bo'lsa, Layli va Majnun o'rtasidagi muhabbat ularni jismongan ayirib, ruhan birlashtirdi, ya'ni ma'naviy-ruhiy yuksaklikka - ishqning eng olib darajasiga ko'tardi.

Ikkala ishq qissasi ham fojiali niyoha topgan bo'lsa-da, ulardagi fojia turlicha maqomga ega. "Layli va Majnun" qahramonlari doston yakunida ishq dardida (Allohning amri bilan)xasta bo'lib vafot etsa, Verter to'pponcha bilan o'zini otib joniga qasd qiladi. Mazkur nuqtada ham qahramonlar ruhiy dunyosini ikki qutbga ajraladi. Musulmon kishi har qanday vaziyatda ham, o'zini taqdiring hukmiga havola etadi, har qanday zulmatdan nurga qarab intiladi. Har qanday holatda o'z jongia qasd qilish Sharqda gunohi azim hisoblanadi. Demak, eng yuksal insonyi tuyg'ular dunyoning har bir burchida, barcha insonorlar qalbida bix xilda tug'yon ursa-da, turli qutb aholisining e'tiqidagi qarashlari, dunyoqarashi, dini, urf-odatlari va boshqua ma'naviy-ruhiy jihatlar o'rtasidagi o'zgachaliklar yuqoridagi tuyg'ularga bo'lgan munosabatlarda aksini topadi.

Zarina RAHMONOVA,
SamDU o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD).

mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Fazilov Golib Kabulovichga (2014-yil 20-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Akramov Ashrafga (2009-yil 21-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 67-J" uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Ibragimov Gazanfarga (2019-yil 3-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Akramova Umeda Ashrapovnaga (2024-yil 12-sentabrdan vafot etgan) tegishli

Samarqand tumanida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Ochilov Samatga (2023-yil 15-novabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand tumani O'rtashiq mahallasi.

* * *

Samarqand tumanida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Ochilova Zebi Nasimovnaga (2024-yil 8-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand tumani O'rtashiq mahallasi.

* * *

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Sadullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Avazov Ibragimga (2024-yil 7-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand shahri Abdurahmon Soniy ko'chasi, 1-uy.

* * *

uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sadullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Yuldashev Quvondik Usanovichga (2020-yil 24-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasida marhum Narziyev Abdulla (2007-yil 1-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand shahri Abdurahmon Soniy ko'chasi, 1-uy.

* * *

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahilafandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarcand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Boshishga topshirish vaqtida:

soat 18:30 da.

Boshishga topshirildi:

soat 19:00.

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

F.RO'ZIBOYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.

ISSN-201667X

9 7 7 2 0 1 6 6 7 0 9

Sotuvda narxi kelishilgan holda



FRANSUZ OLIMLARINI QIZIQTIRGAN SHOIR

Alisher Navoiyning boy ma'naviy merosi bir necha asrlar o'tsa ham o'z qadr-qimmatini yo'qotmay keladi. Hazrat ijodi nafaqat Sharq mamlakatlarda, balki G'arbda ham chuqur o'rganiladi. Uning nodir asarlari fransuz olimlarida ham qiziqish uyg'otgan. Fransa-Alfons Belen, Lui Aragon, Jan-Per Bulp, Remi Dor kabi olimlar Navoiy ijodini o'rganishgan. Xususan, "Osyo jurnali"da 1861-yil Fransa-Alfons Belenning "Mir Alisher Navoiyning hayoti va ijodidan lavhalar" nomli tadqiqoti nashrdan chiqdi. U Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari ustida ham tadqiqot olib borib, uning ijodi, shoirlilik mahoratini yuksak baholaydi. Yana bir fransuz adibi Lui Aragon o'zining monografiyasida "Farhod va Shirin" dostonining bir qismini fransuz tiliga tarjima qilgan.

Institutimizning fransuz filologiyasi kafedrasida

Navoiy ijodiga, uning ilmiy merosiga bo'lgan qiziqish, o'rganish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ya'ni, kafedra tayanch doktorantlari va mustaqil izlanuvchilari Alisher Navoiy ijodi va fransuz shoirlari ijodini qiyoslab, ilmiy ishlari

davom ettirmoqda.

Jumladan, fransuz filologiyasi kafedrasida tadqiqotchisi Tursuntosh Eshboyeva «O'zbek tilidan fransuz tiliga tarjima qilingan she'rlarning lingvo-poetik tahlili» mavzusidagi dissertatsiyasida Alisher Navoiy ga'zzalarining o'zbek tilidan fransuz tiliga tarjimasi ustida izlanish olib bormoqda.

**Shohsanam XOLMANOVA,
SamDChTI o'qituvchisi.**

Xorijiy til o'qituvchisi sertifikatga ega bo'lishi shart

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganishga qiziqish oshib bormoqda. Bu esa chet tillarni o'rgatuvchi o'qituvchilarning bilim va mahoratini oshirishni taqozo etmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham ushbu zarurat yuzasidan qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra, 2025/2026-o'quv yiliga qadar umumiy o'rtta, o'rtta maxsus va professional ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan barcha xorijiy tillar o'qituvchilari kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozim.

Qarorning 9-bandiga muvofiq, 2022/2023-o'quv yilidan boshlab, davlat ta'lim muassasalarining xorijiy tillar o'qituvchisi lavozimiga ishqha qabul qilingotagan talabgor kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozimligi belgilangandi. Bunday sertifikatga ega talabgor amaliyotchi-o'qituvchi sifatida ishqha qabul qilingindi va bir yil ichida kasbiy sertifikat ham olishi kerak bo'ldi. B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatlar kasbiy sertifikat o'rnda qabul qilinmaydi.

Amalda maktablarda ishlab kelayotgan xorijiy til o'qituvchilari esa 2025/2026-o'quv yiliga qadar B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozimligi belgilangan. Bu tartib ham xorijiy tillar bo'yicha mutaxassis bo'lib yetishadigan yoshlarning bilim darajasi va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.